

BUGUNGI KUNDA MENEJMENTLIKNING AHAMIYATI**Bo'riyev Shahbozbek***Global Education o'quv markazi buxgalteri*

Annotasiya: *Ushbu maqolada menejmentlik, uning asoslari, turlarining vazifalari to'g'risida so'z yuritildi.*

Kalit so'zlar: *Menejment, aql-idrok, qobiliyat, uning asoslari, turlari hamda vazifalari.*

Menejmentning eng ixcham ta'rifini quyidagicha keltirish mumkin: menejment — bu mehnat, aql-idrok, qobiliyat, tajriba. Bilamizki, malakalarni ishga solgan holda maqsadlarga samarali erishishni tashkil etish, boshqarishdir. Menejment nafaqat biznesni qanday olib borishni tushunishga yordam beruvchi, balki turli-tuman vaziyatlarda xatoliklardan qochishni o'rgatuvchi inson bilimlari sohasidir. Zamonaviy menejment ko'pincha strategik rejalashtirish va boshqarishning zaruriyati muammolari bilan duch kelmoqda, chunki tashqi muhitning to'satdan va tez o'zgarishi, asosan texnologiyalarda, bozordagi raqobatda, real holdir. Shu bilan birga boshqaruv strukturalari ham o'zgarmoqda, ko'proq nomarkazlashuv afzal ko'rilmogda. Tashkiliy mexanizmlar yangi muammolarning chiqishiga va original yondashuvlarning ishlab chiqilishiga moslashib bormogda. Qabul qilingan qarorlarning bajarilishi ustidan nazorat qilish ketma-ketlikda bormogda. Resurslarni taqsimlashdagi manyovrlar yangi vaziyatlarda ulami sarflashdagi punktuallikka qaraganda ko'proq qadrlanadi.

Menejment fanining mazmuni boshqaruv tizimi va boshqaruv ob'yekti orasidagi o'zaro munosabat bo'lib, uning asosiy vazifasi boshqaruvning zamonaviy usullarini, rahbarlik san'ati sirlarini o'rganishdan iborat. Boshqaruv — tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat etish jarayonidir. Uning asosiy maqsadi bozor munosabatlari sharoitida barcha bo'g'inlarda ishlay oladigan yuqori malakali boshqaruvchilarni tayyorlashdan iborat. Menejment ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-huquqiy, kibernetika va boshqa fanlar bilan aloqadordir. Menejment dastavval iqtisodiy nazariya fani bilan yaqindan bog'liq. U iqtisodiy qonunlarni bilib olishga va ularga mos ravishda boshqarish jarayonida iqtisodiy usullarni qo'llashga, har bir xodimga va jamoaga ta'sir ko'rsatishga asoslanadi. Bir qancha iqtisodiy fanlar: makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot, statistika, mehnat iqtisodiyoti kabilar ham Menejment fani bilan chambarchas bog'liqdir. Menejment sohasida birinchi tadqiqotlar sinfiy maktablar tomonidan amalga oshirilgan. Birinchi

menejerlarni asosan ishlab chiqarish (texnik yondashuv) masalalari tashvishga solgan. Ular o'z faoliyatlarini ishchilarni moslash masalalariga qaratganlar. Bu maqsadlar uchun ish joyi dizayni ishlab chiqilgan. Turli operatsiyalarga ish vaqti o'rganilgan va hokazo. O'sha davrning ko'pchilik tadqiqotchilari menejment bu san'at deb tasavvur qilgan. Menejmentni bunday tushunishning sababi hamma xodimlar ham o'z o'lchovlari bo'yicha rahbarlik lavozimiga to'g'ri kelmasligidir.

XX asr oxiri XXI asr boshlarida menejment O'zbekistonda maxsus fan sifatida oliy o'quv yurtlarida o'qitila boshladi, menejmentga doir tadqiqotlar yo'lga qo'yildi, darsliklar yozildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Sadir Salimoye, Dilfuza Rahimova. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000.
2. G'ulomov S. S, Abdullayev Y, Menejment, Toshkent, 2002.
3. To'xtayev Dilmurod, Azamatova Dilrabo, Toshkent, 1999.